

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SHART GAPLARNING IFODALANISHI

Majidova Maftuna Murod qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Lingvistika (ingliz tili) Magistratura talabasi

majidovamaftuna33@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada shart munosabatlarining tilshunos olimlar tomonidan tadbiq etilgan turlari va qanday ishlatilishi ko‘rib chiqilgan. Ingliz tilida shart gaplar asosan ikki turga indikativ va subyunktiv turlarga bo‘linadi. Sintaktik jihatdan ular nol turdagi shart gaplar, birinchi tur shart gap hamda ikkinchi tur shart gaplarga ajratiladi.

***Kalit so‘zlar:** shart, shart gap, indikativ, subyunktiv, birinchi va ikkinchi tur shart gap.*

EXPRESSION OF CONDITIONAL SENTENCES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Uzbekistan State World Language University
Master’s student Faculty of English Linguistics

majidovamaftuna33@gmail.com

ABSTRACT

The article examines the types of conditional relations applied by linguists and how they are used. Conditional sentences in English are mainly divided into two types: indicative and subjunctive. Syntactically, they are divided into conditional sentences of the zero type, conditional sentences of the first type and conditional sentences of the second type.

***Key words:** indicative, subjunctive, zero, first and second conditional sentences.*

Ingliz va o'zbek tilshunosligida ko'plab lingvistlar shart munosabatlarining gapdagi o'rni va qanday, qay tarzda ifodalanishi haqida ta'riflab bergan. Lingvist olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni sanab o'tishdan avval "shart" so'zining izohli lug'atlarda ko'rsatilgan ma'nolariga e'tibor qaratish lozim. Z.M Ma'rufov tahriri ostidagi izohli lug'atga ko'ra shart so'zi; 1) biror ish yoki masala yuzasidan yozma yoki og'zaki o'zaro kelishib olish, o'zaro kelishuv. 2) o'zaro shartlashayotgan yoki biror munosabatda bo'layotgan tomonlardan birining boshqa tomonga nisbatan qo'ygan talabi taklifi. 3) biror narsaning amalga oshishi uchun zarur bo'lgan omil, hol axvol sharoit. 4) shart mayli (grammatika) biror ish harakatning bajarilishi shart bo'lgan boshqa ish harakat yoki holatni anglatuvchi fe'l formasi. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan voqea- hodisa , belgi hususiyatning qay shart – sharoitda ro'y berishini anglatuvchi ergash gap kabi ma'nolarni anglatadi.

Bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida shart munosabatlarining ifodalanish tasniflari ustida turli hil izlanishlar olib borilishiga qaramay, hali hamon o'zgarmas namunaviy mezoni aniqlanmagan ya'ni ko'plab lingvist olimlarning o'z qarashlari mavjud. Buning asosiy sababini bir guruh rus tilshunoslari jumladan B. A. Ilish, E.M Gordon, I.P Krilova, B. C Xaymovich, B.I Rogovskaya va boshqalar quyidagicha izohlaydi; ingliz tilida shart munosabatlarining ifodalanishida ma'no va shakl o'rtasidagi munosabatlar noaniqdir. Ya'ni bitta shakl bilan turli ma'nolar ifodalanishi mumkin va aksincha bir ma'noni bir necha shakllar orqali ham ifodalash mumkin. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki shart munosabatlari ifodalanishining tasniflanishidagi bunday muammo va aniqsizliklar har bir til grammatikasiga hos bo'lgan hususiyatdir.

Ingliz tilida shart munosabatlarini ifodalovchi gaplarni ikki turga ajratadi: 1) indikativ (indicative) va 2) subyunktiv (subjunctive).

Indikativ termini oddiy, obyektiv darak va so'roq gaplarda keluvchi fe'l mayli, aniqlik mayli hisoblanadi. Subyunktiv tushunchasi a) subyektiv, noaniq, gipotezaviy va grammatik tobe darak va so'roq gaplardagi fe'l mayli; b) subyunktiv mayli; v) subyunktiv mayldagi fe'lga ishora qiladi. Shuningdek, Sh. Bo'tayev va A. Irisqulov

tahriri ostidagi tarjima lug‘atda indikativ so‘zi “grammatikada fe’lning aniqlik mayli” sifatida tarjima qilinsa, subyunktiv so‘zi esa, “grammatik jihatdan istak mayli; istak fe’li” shaklida tarjima qilingan. Ma’lum bo‘lishicha, indikativ termini aniqlik mayli va mazkur mayldagi fe’lning aniq shakliga ishora qilsa, subyunktiv tushunchasi subyunktiv mayl va bu mayldagi istak fe’lini bildiradi. Arab tilshunos olimi Sadam Haza’ Al Rdaat va rus olimi A.S. Xornbi kabi olimlar shart munosabatini ifodalovchi gaplarning sintaktik jihatdan quyidagi turlarini qayd etadilar:

1. *Zero Conditional* (nol turdagi shart gap). Bunday turdagi shart gaplar umumiy haqiqatlar va ilmiy faktlar (real ish-harakatlar)ni ifodalaydi va quyidagicha shakllanadi: If + present tense, S+ present tense yoki If + past tense, S+past tense. Misol uchun “agar suvni 100 gradus haroratda isitsa, u qaynayda”. A.S. Xornbining e’tiroficha, bunday real shart munosabatlari maqollar orqali ham ifodalanadi: ”Spare the rod, spoil the child (Bolalar aravachasini asrayman desang, bolaning o‘zini yo‘qotasan). Aniq bo‘ladiki, bunday shart munosabat maqollarda ham o‘z aksini topishi mumkin.

2. *First Conditional* (birinchi tur shart gap). Bu turdagi shart gaplar

hozirgi va kelasi zamonda biror-bir ish-harakatning sodir bo‘lish ehtimoli yuqori (real) va haqiqatga juda yaqinligi bilan xarakterlanadi va quyidagicha shakllanadi: If + present simple, S+will + base form. Masalan: Teacher’ll kill us if we late to lesson. Bunday turdagi shart gaplarda can, may va should kabi modal fe’llar ishlatilishi mumkin. Ko‘rinib turganidek, mazkur konstruktsiya asosan sodir bo‘lish ehtimoli yuqori ish-harakatlarni ifodalashda qo‘llaniladi. Shuningdek, mazkur shart munosabati “If + should + base form , S+ present simple” konstruktsiyasi orqali ham ifodalanishi mumkin bo‘lib, bunda should “maslahat” ma’nosini ifodalab keladi hamda burch va majburiyatni ta’kidlab, real shart ergashgan qo‘shma gaplarning ergash gap qismida ishlatiladi.

O‘zbek tilshunoslari M. G‘apporov, R. Qosimovalarning qayd etishicha, birinchi tur shart gap “If+S+should+infinitive, S+will+base form” formulasi orqali ifodalanib,

ergash gapdagi shartning yuzaga chiqish ehtimoli juda kamligini ifodalaydi. Ya'ni, qayd etish mumkinki, ergash gapda kelgan should modal yordamchisi ish-harakatning sodir bo'lish ehtimolini pasaytiradi.

Birinchi tur shart gaplar "If+S+ will +infinitive, S+will+base form" konstruktsiyasi orqali ham ifodalanib, xohish-istak, iltimos va tayyorlik ma'nolarini ifodalaydi va bunda will yordamchisi alohida urg'u bilan talaffuz qilinadi. Ma'lum bo'ladiki, shart munosabati ifodalanishida fonologik komponent (urg'u)lar ham ahamiyatlidir.

Bu turdagi shart gaplarning bosh gap qismida fe'l buyruq maylida bo'lishi ham mumkin va If+S+present simple, V+object sintaktik shaklida o'z aksini topadi.

3. *Second Conditional* (ikkinchi tur shart gap). Hozirgi va kelasi zamonda sodir bo'lishi mumkin bo'lmagan (noreal) ish-harakatlarni ifodalovchi, asosan "If + past tense/were, S+would +base form" sintaktik forma ko'rinishiga ega (bunda to be yordamchi fe'lining were shakli hamma shaxslar uchun ishlatilib, ergash gap qismida keladi) Misol uchun "If I were you I would bought literary books instead of academic books" gaplar ikkinchi tur shart gaplar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barbara Dancygier, Ewa M. *Semanto-pragmatic classification of conditionals*//*Studia Anglica Posnaniensia*. –Warsaw: University of Warsaw, 1984.– P. 121–133
2. Celce-Murcia, M. and Larsen-Freeman, D. *The Grammar Book: An ESL/EFL Teacher's Course*.-New York: Heinle and Heinle, 1999.– 843 pp.
3. Daniel Rothschild. *A note on conditionals and restrictors*. 2011. – 33 pp.